



O'LMAS UMARBEOVNING "ODAM BO'LISH QIYIN" ASARIDA MA'NAVY-AXLOQIY MUAMMOLAR

**Omonova Dilafruz
Sharofiddin qizi**

Nizomiy nomidagi O'zMPU talabasi

Mubora Omonova

Ilmiy rahbari: dotsent, fil.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asarida hayot, hayotning haqiqatga to'la nafari, yoshlar hayoti, ma'naviy-axloqiy muammolar, insonlarning murakkab vaziyatlari, ikki o'tning orasida qolish holatlari, kelajagi yaxshi bo'lishi uchun boshqa qizni tanlashi, pok sevgi, vakili ahidga sodiq bo'lmagan inson sababli qiyinchiliklarga duch kelishi, ayriliq ham aldanishga chiday olmay bu dunyoni tark etish holati hamda bundan xabar topgan ahdsiz insonning bir umr ichki konfliktida yashashigacha bo'lgan voqealar keskin hamda haqqoniy tarzda yoritiladi.

Maqolada asarning janr xususiyatlari, obrazlar tizimi, badiiy til va uslub masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, romanning o'zbek adabiyotdagi o'rni va ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: O'lmas Umarbekov, ilk roman, o'zbek adabiyoti tarixi, Abdulla, arxitektor Gulchehra, Sayyora, Samad, ilk ko'rishdagi sevgi, ishonch, xiyonat, hayotiy sinovlar, o'lim, ichki konflikt.

Annotation: This article sharply and frankly covers the events in the work of the national writer of Uzbekistan, Olmas Umarbekov, "It is difficult to be a human being", life, the breath of life full of truth, the life of youth, spiritual and moral problems, complex situations of people, situations of being caught between two poles, choosing another girl for a better future, facing difficulties because of a person who is not faithful to his covenant, the situation of leaving this world unable to bear the separation and deception, and the fact that a person who has become aware of this, lives in internal conflict for a lifetime, from life to death. The article analyzes the genre features of the work, the system of images, the issues of artistic language and style from a scientific and theoretical perspective, and substantiates the role and significance of the novel in Uzbek literature.

Keywords: Umarbekov, the history of Uzbek literature, Abdulla, Gulchehra, Sayyora, Samad, love at first sight, trust, betrayal, life's trials, death, internal conflict.

Аннотация: В данной статье резко и откровенно рассматриваются события произведения национального писателя Узбекистана Олмаса

Умарбекова «Трудно быть мужчиной», затрагивающего темы жизни, дыхания жизни, полной правды, жизни юности, духовно-нравственных проблем, сложных ситуаций людей, ситуаций, когда человек оказывается между двух полюсов, выбора другой девушки ради лучшего будущего, трудностей, связанных с неверностью человека, ситуации чистой любви, покидающей этот мир, неспособной вынести разлуку и обман, а также внутреннего конфликта, который переживает неверный человек, осознавший это, на протяжении всей своей жизни. В статье анализируются жанровые особенности произведения, система образов, вопросы художественного языка и стиля с научно-теоретической точки зрения, а также обосновывается роль и значение романа в узбекской литературе.

Ключевые слова: Олмаса Умарбеков, историю узбекской литературы, Абдулла, Гюльчехра, Сайёра, Самад, любовь с первого взгляда, доверие, предательство, жизненные испытания, смерть, внутренний конфликт.

Yozuvchi O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asari hayotiy va ma’naviy-axloqiy muammolar, yoshlar hayoti, insonlarning murakkab vaziyatlari, insonning bir umr ichki konfliktida yashashigacha bo‘lgan voqealar asosida haqqoniy tarzda yoritilgan.

Asar sujeti va mazmuni ham asarning nomiga mutanosib. Asar qisqacha mazmuni quyidagicha: Abdullajon buvisining uyiga, Mingbuloqqa ta’tilda kelib yurardi. Maktabni oltin medalga bitirgandan so‘ng ham odatiga ko‘ra qishloqqa boradi. U yerda yoshlikdagi o‘rtog‘i Gulchehrani uchratib, chiroyli, odobli qiz bo‘lganini ko‘rgan yigit beixtiyor ko‘ngil qo‘yadi. Ular Abdulla shaharga qaytgungacha bir-birlari bilan uchrashib yurishadi.

Ta’tildan so‘ng ikkisi ham o‘qishga topshirishlari, biror oliygohda ta’limni davom ettirishlari lozim edi. Gulchehraning maqsadi aniq: me’mor bo‘lish. Ammo u shaharga borolmasdi. Onasi saratonga chalingan, ota-onasini shu holda tashlab ketishga ko‘zi qiymasdi. Shuning uchun sirtqi ta’limga topshirdi. U ayni paytda qishlog‘ining eski maketini yasay boshlagandi. Maqsadi – eski va ko‘rimsiz qishlog‘ini yangi va qulay go‘shaga aylantirish edi.

Abdulla buvisinikidan qaytgach, uni yangilik kutib turardi. Ayni paytda Abdullaning ham otasi bemor: gipertoniya chalingan bo‘lib, uyga qamalib qolgandi. Otasining yoniga Tursunali ismli odam keladi va Abdullaning Moskvadagi yangi ochilgan institutda o‘qishi uchun yordam berishini aytadi. Abdullaning dadasi G‘ofur aka bu odamga ilgari yordam berganligini keyin eslaydi.

Tursunali aka Abdullaning aqlli, quntli bola ekanini bilardi. Qolaversa, o‘zining qizi Sayyorani ham o‘sha institutda o‘qitmoqchi, qiziga Abdullani sherik qilmoqchi edi. Bunday taklifdan Abdulla biroz gangiydi. Moskvaga ketib qolsa, Gulchehradan uzoqlashib ketishi mumkin, bu taklifdan voz kechsa, keyinchalik bunday imkoniyat qayta bo‘lmasligi mumkin. Abdulla rozi bo‘ladi...

Moskvaga borib, 4 yil o‘qiydi. Bu orada Gulchehraning onasi qazo qiladi, dadasi boshqaga uylanadi. Gulchehra butun boshli qishlog‘ining yangi loyihasini ishlab chiqadi va bu loyiha odamlarga ma’qul bo‘ladi. Bundan tashqari, Toshkentda “Yoshlik” nomli mehmonxona uchun loyihalar tanlovida g‘olib bo‘lib, uning

chizmalari asosida mehmonxona qurila boshlaydi. Faqat bitta muammo bor edi. Gulchehra Abdulladan homilador bo'lgandi.

Bu payt Abdulla o'qishni bitiray deb turgan, xayollari chalkash bir holatga tushgandi. Sababi shunda ediki, Tursunboy aka akademik unvonini olgan bo'lib, bu unvon Abdullaning ham orzusiga aylangan, yuragiga o't solgandi. Tursunboy aka Abdullani kuyov qilish niyatida yurganini bilgandan so'ng, u uchun Sayyoraga uylanish unvon tomon dadil qadam bo'lishini o'ylab qolgandi. Sayyoraga uylanish porloq kelajak kafolatidek ko'rini boshladi unga. Lekin uning ko'ngli Gulchehrada edi. Gulchehra ham anoyi chiqmadi. Qishlog'ida katta ishlarni boshlab yuborgandi. Shunday ikkilanib yurgan kunlarining birida homila haqida xatni o'qigach, Abdulla gangib qoldi. Sarosimaga tushdi. Gulchehraga bolani oldirishi haqida telegramma yubordi.

Gulchehra bolani oldirish maqsadida Toshkentga bordi. Bu orada uning loyihasi asosida qurilayotgan mehmonxona ham bitib qolgandi. Ishlarni ko'zdan kechirib chiqqach, Gulchehra shifokor izlay boshlaydi. Bir necha kunga bir kampirning uyida ijarada turadi va unga barcha dardini to'kib soladi. Bir kuni bozorda Abdullaning onasiga duch kelib qolgan qiz Abdullaning uylanayotganini eshitadi. Butun orzulari payhon bo'lgan, tuyg'ulari toptalgan Gulchehra uyga sig'may, kechasi chala bitgan mehmonxonaga boradi-da, eng yuqori qavatiga chiqib, kutilmaganda tushib ketib, jon beradi.

Butun qishloq ahli fojidan va uning sababidan xabardor bo'ladi. Endi Abdulla bosh ko'tarib yurolmasdi. Na odamlar va na o'zining oldida...

Asarda Samad mard inson obrazida tasvirlangani hech bir kitobxonni yodida chiqmaydi. Ayniqda uning: "Tirikligida xo'rlading. O'lganida tinch qo'y. Ket", – degan nutqi barchaning yodida chiqmaydi. Unga qarama-qarshi o'rinda esa Abdulla turadi.

Abdulla o'tkinchi obro'-e'tiborga yetishaman deb vijdonini yutqazib qo'ydi, guldek bir qizning hayotiga zomin bo'ldi. Endi uning olim bo'lishidan biror ma'no bormi?

Inson, avvalo, olim bo'lishdan oldin odam bo'lmas ekan, topgan dunyoviy obro'-e'tibori, unvon-u amali bir pul emasmi? Albatta, shunday, ammo buni u juda kech anglagan edi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'lmas Umarbekov. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2002.
2. O'tkir Hoshimov. Umr savdosi. – Toshkent: Sharq, 1998.
3. O'lmas Umarbekov. Odam bo'lish qiyin. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. www.ziyo.com